

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

KURBANOVA MUXABBAT MAMADJANOVNA

**XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV VA MARK TVEN ROMANLARINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Kurbanova Muxabbat Mamadjanovna

Xudoyberdi To'xtaboyev va Mark Tven
romanlarining qiyosiy-tipologik tahlili3

Курбанова Мухаббат Мамаджановна

Сравнительно-типологический анализ романов
Худойберди Тухтабоева и Марка Твена24

Kurbanova Mukhabbat Mamadjanovna

Comparative typological analysis of novels
Khudoyberdi Tukhtaboev and Mark Twain47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works51

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

KURBANOVA MUXABBAT MAMADJANOVNA

**XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV VA MARK TVEN ROMANLARINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2568 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomli O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuull.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Ikromxonova Firuza Ikromovna
filologiya fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Teshaboyeva Ziyodaxon Qodirovna
filologiya fanlari doktori, professor.

Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna
filologiya fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

H.A. Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.d., professor

S.X. Muhamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida bolalar adabiyotiga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Bu axborotlashgan davrda yosh avlodning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq bo‘lib, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash zarur. Zero, dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayoni o‘zbek bolalar adabiyotining yetuk namunalarini AQSh bolalar yozuvchilari asarlari bilan qiyosiy tahlil etish zaruratini tug‘diradi. Shu yo‘l bilan shakllanayotgan yosh avlodga adabiy-tarixiy jarayonning muayyan makon va zamon kesimidagi poetikasiga xos umumiy xususiyatlarini, badiiy usul va vositalarini o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo qiyosiy adabiyotshunosligida mumtoz romanlarga murojaat qilish ortib bormoqda. Bu bir tomondan, globallashuv jarayonidagi dunyo madaniyati, xususan, adabiyotiga insoniyat tomonidan yaratilgan barcha yetuk va ilg‘or adabiy-badiiy boyliklarni jalb etish bilan bog‘liq. Ikkinchi tomondan esa har bir xalq o‘zining ma’naviy va madaniy merosini jahon adabiyotida munosib o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatishga intiladi. Bu borada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgandir, ammo mavjud ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy tajribalar dunyo adabiyotshunosligidagi jarayonlarni to‘la qamrab olmagan ko‘zga tashlanadi. Shu ma’noda, XIX, XX asrlarda yaratilib, ko‘p tillarga tarjima etilgan o‘zbek va AQSh mumtoz adabiyoti namunalari misolida jahon bolalar adabiyotining yuksak namunasini qiyosiy-tipologik tahlil etish dolzarblilik kasb etadi.

O‘zbek adabiyoti o‘zining uzoq tarixiy taraqqiyot bosqich yo‘lini bosib o‘tgan. So‘nggi yillarda o‘zbek bolalar adabiyoti yangi badiiy-estetik tamoyillar asosida jadal rivojlanib bormoqda. Yozuvchi epik qahramon ruhiyatidagi evrilishi, mumtoz adabiyotning an‘analariga yangicha yo‘sinda yondashishga alohida e’tibor qaratmoqda. Zero, “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz”¹, degan ustuvor vazifaning asosiga o‘zbek bolalar adabiyoti namunalarini jahon adabiyoti namunalari bilan solishtirish, o‘zbek adabiyotining miliy va umuminsoniy qadriyatlarini ilmiy asoslash darajasida ochib berish ham kiradi. Binobarin, globallashuv jarayonida har bir xalq adabiyoti jahon adabiyotidagi o‘z o‘rnini egallashi uchun yetuk adabiyot namunalarini qiyoslash zarur bo‘ladi.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020. www.president.uz

to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish usullari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek va jahon adabiyoti namunalari qiyosiy-tipologik tahlili bo'yicha ma'lum bir tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Aleksey Nikolayevich Veselovskiy, Yevgeniy Eduardovich Bertels, Viktor Maksimovich Jirmunskiy, Nikolay Iosifovich Konrad, Dioniz Dyurishin, Maya Mixaylovna Koreneva, Fozila Sulaymonova, G'aybullo Salomov, Najmiddin Komilov kabi olimlar qiyosiy-tipologik tadqiqotning ilmiy nazariyasini takomillashtirishgan.² O'zbek olimlaridan Muhammadjon Xolbekov, Zulfiya Pardayeva, Muhabbat Sharafutdinova, Abdug'opir Qosimov, Rohila Abdullayeva, Saodat Komilova, Salima Babayeva, Olim Ortiqovich Dadaboyev, Nasiba Qobilova, Zulxumor Mirzayeva, Firuza Ikromxonova, Qahhorjon Yo'lchiyev kabilar esa o'zbek adabiyoti namunalari boshqa xalqlar adabiyoti bilan qiyosiy-tipologik tadqiqini olib borishgan³. Muhammadjon Xolbekov, Abdug'opir Qosimov o'zbek va fransuz adabiyotini, Zulfiya Pardayeva, Saodat Komilova o'zbek va rus, Rohila Abdullayeva o'zbek va nemis, Firuza Ikromxonova, Salima Babayeva, Nasiba Qobilova o'zbek va AQSh, Olim Dadaboyev G'arb va Sharq

²Веселосвкий А.Н. Западное влияние в новой русской литературе. Историко-сравнительные очерки. – Москва: Русское Т-во печатного и издательского дела, 1896. – 267 с.; Бертельс Е.Э. Роман об Александре и его главные версии на Востоке. М.-Л.: Изд-во академии наук., 1948, 191 с.; Конрад Н.И. Избранные труды. История. – М.: Наука, 1974. – 478 с.; Дюришин Д. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: Прогресс, 1977. – 318 с.; Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – 497 с.; Александр Дима. Принципы сравнительного литературоведения. – М.: Прогресс, 1977. – 212 с.; Коренева М.М. Литературы американского континента. История всемирной литературы. – В девяти томах. Том пятый. – М.: Наука, 1988. – С. 423-436.; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 416 б.; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т.: Маънавият, 1999. – 280 б.

³ Холбеков М. Бобур ва "Бобурнома" француз шарқшунослиги саҳифаларида. www.ziyouz.uz; Пардаева З. Ўзбекистондаги рус ва русийзабон адабиётда тарихий қаҳрамонларнинг бадиий типологик таҳлили. Филол.фан.ном. ... дисс. автореф. – Т. 1995. – 26 б.; Шарафутдинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Автореф. дисс... док.филол.наук. – Т.; 2010. – 50 с.; Қосимов А.А. Типологик ўхшашликлар ва ўзаро таъсир (Антуан де Сент-Экзюпери), Камилова С.И. Развитие поэтики жанра рассказа в русской и узбекской литературе конца XX – начала XXI века. Дисс... док.филол. наук. – Т.; 2016. – 291 с.; Қобилова Н.С. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадиий психологизм филол.фан.бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. - 48 б.; Бабаева С.Р. Ўзбек ва АҚШ адабиётда болаликнинг бадиий талқини. филол.фан.бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. - Т.; 2012. – 148 б.; Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг хориж тадқиқотчилари. – Т.: Mumtoz so'z, 2016. – 128 б.; Дадабоев О.О. Ғарб ва Шарқ контекстида Амир Темур шаҳси талқини. филол.фан.бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Т.; 2019. – 48 б.; Икромхонова Ф. Ўзбек ва инглиз тили насрда тарихий асар поэтикаси (композиция ва образ). Филол. фан. док. (DSc) дисс., 2021. – 255 б.; Йўлчиев Қ. Типологик ўхшашликлар: бирлик ва учлик. – Т.: Turon-zamin ziyo, 2016. – 220 б.

adabiyotida Amir Temurni, Qahhorjon Yo'lchiyev esa o'zbek va jahon she'riyatidagi kichik lirik she'rlarni qiyoslagan.

Mark Tven ijodi bo'yicha esa Albert Peyn, Van Vik Bruks, Ketrin Van Spanskeren, Richard Gray, Abel Isakovich Startsev, Pavel Vyacheslavovich Balditsin, Moris Osipovich Mendelson, Denis Valeryevich Pyanov, Vasilisa Aleksandrovna Shachkova, Svetlana Vladimirovna Skubina, Elena Aleksandrovna Grezdeva, Yelena Vladimirovna Semyonova kabi AQSh va Rossiya olimlari kitob, dissertatsiya va maqolalar e'lon qilganlar⁴.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev ijodi haqida turli olimlar qator kitob va maqolalarida fikr bildirishgan. Bular orasida Matyoqub Qo'shjonov, Salohiddin Mamajonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov, Pirmat Shermuhammedov, Omonulla Madayev, Safo Matchonov, Abdug'afur Rasulov, Sobir Mirvaliyev, Rahmatulla Barakayev kabilarning ishlari e'tiborga molik sanaladi⁵.

Biroq Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" va Mark Tvenning "Geklberri Finn sarguzashtlari" romanlari qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek va ingliz tili adabiyotining qiyosiy-tipologik tahlili" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va AQSh nasridagi bolalarga mo'ljallangan romanlarini qiyoslash misolida bolalar adabiyotining yaxlit tizim ekanligini ko'rsatish, romanlardagi syujet, kompozitsiya, obrazlarni shakllantirishda

⁴ Paine A.B. Mark Twain: A Bibliography. The Personal and Literary Life of Samuel Langhorne Clemens. 3 vols, - N.Y., 1912; Brooks V.W. The Ordeal of Mark Twain. - New York, 1920; De Voto B.A. Mark Twain at Work. - Cambridge, 1942; American literature <http://lipdigital.usembassy.gov/10>; American literature <http://en.academic.ru>; Art and Literature in the United States <http://www.-voyagesphotosmanu.com>; Contemporary American Literature By Kathryn Van Spanckeren <http://iipdigital.usembassy.gov>; Literature of the USA <http://usa-literature.wikispaces.com>; Rangno E. V. R. Contemporary American Literature: (1945-Present) (Background to American Literature) <http://bookfi.net>; Gray, Richard J. A history of American literature / Richard Gray. - 2nd ed. Blackwell Publishers Ltd, 2012. -912 p.; Старцев А.И. Марк Твен и Америка / Марк Твен. Собрание сочинений в восьми томах. Том 1. - М.: Правда, 1980. - С. 3-41; Мендельсон М.О. Реализм Марка Твена. - М.: ИМЛИ РАН, 2005. -348 с; Пьянов Д.В. Своеобразие исторической проблематики в творчестве Марка Твена: философия и поэтика. Автореф. канд.филол.наук. - М.: МГУ, 2003. - 26 с.; Шачкова В. А. Жанр путешествия в творчестве Марка Твена конца 60-70-х годов XIX века. Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. Нижний Новгород - 2008. 25 с.; Скубина С.В. Образные художественные средства в романе Марка Твена «Приключения Тома Сойера» (в подлиннике и переводах). Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. - Краснодар, 2008. - 25 с.; Груздева Е.А. Эволюция образа простака в творчестве Марка Твена в контексте просветительской традиции Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Казань, 2013. - 24 с.; Староверова Е.В. Американская литература. - Саратов. 2017. www.sgu.ru; Семенова Е.В. Литература США: учеб. пособие / Е.В. Семенова, М.Л. Ростова. - Красноярск: Сибирский федеральный ун-т, 2016. -140 с.

⁵ Кўшжонов М. Ўзига хос ижод соҳиби. / Сарик девни миниб. - Т.: Ёш гвардия, 1982. - 145 б. Мамажонов С. Ҳаққонийлик ва услубий ранг-баранглик учун // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. №6.- Б.15-16; Шарафиддинов О. Гўзалликни излаб. - Т.: Фафур Ғулум. 1985. - 86 б. Норматов У. Талант тарбияси. - Т.: 1980. - 176 б.; Ғафуров И. Ўттиз йил изхори.- Т.: Ғафур Ғулум. 1987. - 304 б.; Шермухаммедов П. Танишинг, дўстингиз Орифжон // Гулхан, 1984. № 3. - 20 б.; Мадаев О.. Сўнги сўз. / Ширин қовунлар мамлақати. - Т.: Юлдузча, 1986 - 152 б.; Расулов А. Ғаройиб салтанат./ Ўзбек адабий танқиди. - Т.: Turon-Iqbol, 2011. - Б.141-153; Собир Мирвалиев. Ўзбек адиблари. - Т. 2007. - 242 б.; Мамажонов С. Ҳозирги ўзбек болалар адабиётининг баъзи тенденциялари / Болалар олами. - Т.: Ёш гвардия, 1988. - 154 б.; Имомов Б. Замон ва болалар драматургияси / Болалар олами. - Т.: Ёш гвардия, 1988. - 202 б.

yozuvchilar qo‘llagan o‘zaro o‘xshash va individual jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va AQSh nasriy bolalar adabiyotidagi asarlar qiyosiy tahlili muammolarini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tizimlashtirish va yangi ilmiy-nazariy umunlashmalar chiqarish;

Mark Tven va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlaridagi o‘smirlar obrazini umuminsoniy tamoyil asosidagi solishtirma tahlilini amalga oshirish, hamda shu yo‘l bilan o‘zbek bolalar adabiyotining globallashuv jarayonidagi o‘rnini belgilash;

“Sariq devni minib” va “Geklberri Finn sarguzashtlari” romanlarida syujet va kompozitsiya munosabatini tahlil etish;

Hoshimjon va Geklberri Finn obrazlari orqali o‘zbek va AQSh bolalari xarakterini ochish, ma’lum makondagi obrazlarning badiiy-estetik funksiyalarini aniqlash;

yozuvchilarning ijtimoiy muammolarini badiiy ifodalashdagi individual ijodiy mahoratini aniqlash, davr va inson kechinmalari bog‘liqligini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” va Mark Tvenning “Geklberri Finn sarguzashtlari” (The Adventures of Hucklberry Finn) romanlari olindi.

Tadqiqotning predmetini tadqiqot obyekt i sifatida olingan romanlar syujeti, kompozitsiyasi, obrazlar, bola va o‘smirlar ruhiyati tasvirining qiyosiy tahlili tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod, biografik, struktural tahlil, tasnif va talqin usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek va AQSh yozuvchilarining bolalarga bag‘ishlangan asarlari haqidagi badiiy usul va vositalarini o‘rganishga oid ilmiy-nazariy qarashlar aniqlanib, qiyoslangan ikki romanning qiyosi natijasida ijodiy individuallik, o‘xshashlik va badiiy mahorat masalalari ochib berilgan;

Mark Tven va Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlaridagi o‘smirlar obrazini umuminsoniy tamoyil asosida solishtirma tahlili amalga oshirilib, o‘zbek bolalar adabiyotining globallashuv jarayonidagi uzoq yillar davomida tillarning muntazam boyib borishiga xizmat qilayotgan, millatlar va ellatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va totuvlik siyosatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan asarlarning badiiy xususiyatlari ochib berilgan;

“Sariq devni minib” va “Geklberri Finn sarguzashtlari” romanlarida poetik muammolar yechimi yangicha tamoyillar asosida ochib berilib, Hoshimjon Ro‘ziyev va Geklberri Finn obrazlari orqali o‘zbek va AQSh bolalari xarakterini ochish, ma’lum makondagi obrazlarning mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi, insonlar bo‘lib voyaga yetishidagi badiiy-estetik funksiyalari ilmiy isbotlangan;

yozuvchilarning ijtimoiy muammolarni badiiy ifodalashdagi muayyan makon va zamon kesimidagi poetikasiga oid xususiyatlarining, individual jihatlari aniqlanib, davr va inson kechinmalarining bir-biriga bog‘liqligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va amerika bolalar nasri bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar adabiyotshunoslik nazariyasi uchun muhim ma‘lumotlar bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

sarguzasht romanlar tuzilishi, obrazlar tizimi, g‘oyaviy mazmuni, syujet, kompozitsiya va bola xarakteri jihatidan qiyoslash bo‘yicha turli ilmiy adabiyotlar yaratishda yordam berishi aotlangan;

o‘zbek va Amerika jamiyatining turli davrlaridagi oila, bola, jamiyat muammolarining shaxs tarbiyasiga ta’siri, ikki xalq dunyoqarashidagi umumiy va xususiy belgilar, obrazlarning qiyosiy-tipologik tahlilida olingan natijalar o‘quv qo‘llanma, monografiyalar yaratish, qiyosiy adabiyotshunoslik sohasi bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar ishlab chiqishga mo‘ljallangani, olingan ilmiy natijalar adabiyotshunoslikning ruzjiga hissa bo‘lib qo‘shiladi, tipologiya bo‘yicha tadqiqotlar uchun manba bo‘la oladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi turli anjuman materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, xorijdagi adabiyotshunos va munaqqidlarning fikrlariga murojaat qilingani, e’tirof etilgan manbalarga tayanganligi, o‘zbek, ingliz, rus olimlarining ilmiy-nazariy qarashlarini yaxlit nazariya sifatida belgilanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u adabiyotshunoslikda shakllangan yangi yo‘nalish va mavzularning milliy-madaniy xususiyatini o‘rganish, o‘zbek va AQSh bolalar adabiyotining o‘zaro ta’sirini aniqlash, yozuvchilarning badiiy asar yaratishdagi shakliy-uslubiy mutanosibligini ko‘rsatish va asar tahlilida bola xarakteri orqali O‘zbek-AQSh badiiy tafakkur tarzi, badiiylik va tasvir usullari, kompozitsiya unsurlarining butunligi kabi muammolar yechimi uchun ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ta’lim tizimida o‘qitilayotgan “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Jahon adabiyoti tarixi”, “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti”, “Bolalar adabiyoti” kabi fanlar bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, yozuvchilar ijodi bo‘yicha maxsus kurs tashkil etishda manba bo‘lib xizmat qilishi, O‘zbek va AQSh bolalar nasrining jahon adabiyoti kontekstidagi aniq o‘rnini ko‘rsatib berilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xudoyberdi To‘xtaboyev va Mark Tven romanlarining qiyosiy-tipologik tahlili bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Hoshimjon Ro‘ziyev va Geklberri Finn obrazlari orqali o‘zbek va AQSh bolalari xarakterini ochish, ma‘lum makondagi obrazlarning badiiy-estetik funksiyalarini aniqlashga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2022-yillarga bajarilgan PZ-2020042022-raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi”ni yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili

va adabiyoti universitetining 2023-yil 30-yanvardagi 04/1-197-son ma'lumotnomasi). Natijada platforma o'zbek va AQSh yozuvchilarining bolalarga bag'ishlangan asarlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar, "Sariq devni minib" va "Geklberri Finn sarguzashtlari" romanlarida poetik muammolar yechimiga oid materiallar bilan boyitilgan;

o'zbek va AQSh nasrining sarguzashtlilik xususiyati, romanlardagi yetakchi obrazlarning ruhiy-psixologik holati, Hoshimjon Ro'ziyev, Geklberri Finn obrazlari orqali o'zbek va AQSh bolalari xarakterini ochish, ma'lum makondagi obrazlarning badiiy-estetik funksiyalarini aniqlashga doir ilmiy xulosalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvida foydalanilgan (O'zbekiston MTRKning 2023-yil 23-yanvardagi № 06-28-121 ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv va roliklarning mazmuni yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyib, ko'rsatuvlar sifati oshdi;

o'zbek va AQSh yozuvchilarining bolalarga bag'ishlangan asarlari haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar; "Sariq devni minib" va "Geklberri Finn sarguzashtlari" romanlarida poetik muammolar yechimining tahlili; Hoshimjon Ro'ziyev va Geklberri Finn obrazlari orqali o'zbek va AQSh bolalari xarakterini ochish, ma'lum makondagi obrazlarning badiiy-estetik funksiyalarini aniqlashga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Bolalar adabiyoti ijodiy kengashi hisobot dasturini tayyorlashda, yosh tarjimonlar to'garagi va Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabida o'tgan adabiy kechalar, "mahorat darslari"da foydalanilgan (O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 16-yanvardagi 01-03/66-sonli ma'lumotnomasi). Natijada voqelikka badiiy-estetik baho berish, o'zbek nasri namunalarini ingliz nasri bilan taqqoslash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ishning asosiy ilmiy xulosalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish jumladan, 1 ta monografiya, 17 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 3 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, jami 125 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ushbu ilmiy tadqiqot ishining **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, mavzu bo'yicha nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

“Bolalar nasrining o‘zbek va AQSh adabiyotidagi o‘rni” nomli birinchi bobda o‘zbek va AQSh bolalar adabiyoti, xususan, bolalar nasrining tarixiy ildizlari, takomili haqida imkon qadar fikr yuritishga harakat qilamiz. Bunda bir fasl doirasida o‘zbek bolalar adabiyoti, ikkinchisida esa AQSh bolalar adabiyoti va unda Mark Tvenning o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Bu esa fasldagi ilmiy ma’lumotlar hamda ularga berilgan ilmiy izoh, munosabat, shaxsiy fikr-mulohazalarimizni bob doirasida o‘zaro solishtirish imkonini beradi.

Ushbu bobning “O‘zbek bolalar nasri genezisi va takomili” deb atalgan birinchi faslida o‘zbek adabiyotida bolalarga bag‘ishlab yaratilgan badiiy adabiyot namunalari qadim tarixga egaligi, xalq og‘zaki ijodi, keyinchalik yozma adabiyotda bolalarga bag‘ishlangan dastlabki asarlar yaratilgani haqida so‘z yuritiladi. Bunda bolalar folklori namunalari, o‘zbek xalq ertaklari hamda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Turkiy so‘zlar devoni”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror”, “Farhod va Shirin” dostonlari, Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Anvar Obidjon kabi ijodkorlarning bolalarga bag‘ishlangan asarlari tahlil qilingan. Shuningdek, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Abdugafur Rasulov, Mamasoli Jumaboyev, Rahmatulla Barakayev, Bashorat Jamilova, Gulchehra Jo‘rayeva kabi olimlarning ishlariga murojaat qilingan.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Turkiy so‘zlar devoni”da bolalarga mo‘ljallangan maqol, she‘riy parchalar va xalq o‘yinlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan⁶. Masalan, “buzdan suw tamar” (muzdan suv tomadi. Bu maqol xulqi otasining xulqiga o‘xshagan-(bola)lar haqida aytiladi)⁷. Yusuf Xos Hojib mazkur dostonda bola tarbiyasi ta’lim-tarbiya bilan bo‘lishi, bolaning komil inson bo‘lib yetishishi uchun unga o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy bilimlarini saboq berilishi kerakligini alohida ta’kidlaydi:

Nesa ma bu kun so‘z senga aysa oz,

Kichiklarka bashlab ayaym bu soz.

(Bugun qancha so‘z aytsan, senga,uni kichiklardan boshlab aytayin)⁸.

Ko‘rinadiki, o‘zbek mumtoz adabiyotida bolalar tarbiyasiga oid turli qarashlar katta yoshdagi kishilar tarbiyasi, jamiyat qurishi bilan aralash keladi. To‘g‘ri, keltirilgan misol dostoniga tegishli degan e’tirozli fikr tug‘ilishi mumkin. Ammo, doston mumtoz adabiyotda epik turning asosiy janri sifatida e’tirof etilgan va unda epik bayon yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, unda ilgari surilgan g‘oya bevosita mavzumizga daxldor sanaladi. Shuning uchun uni bolalar nasri taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rsatib o‘tildi.

Faslda bolalar adabiyoti terminiga ham izoh beriladi. “Bolalar adabiyoti deganda, yozuvchilar tomonidan ularga mo‘ljallab yozilgan maxsus asarlarni tushunamiz... bolalar adabiyoti ham voqelik bilan, hayotdagi turli ijtimoiy

⁶ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони). Уч жилдлик. – Т.: Фан, 1960-1963. – I жилд – 502 б.; II жилд – 432 б.; III жилд – 463 б.

⁷ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони). Уч жилдлик. – Т.: Фан, 1963. – III жилд. – 134-б.

⁸ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. I-жилд. – Т.: Фан, 2003. – 143 б.

hodisalar hamda insoniyat turmushi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni o‘ziga xos vositalarda badiiy aks ettiradi”⁹.

Buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriyning 1915-yilda yozgan “Uloqda” nomli hikoyasi bolalar nasrining yetuk namunasi bo‘la oladi¹⁰. Unda o‘n ikki yoshli Turg‘un ismli bolaning akasi bilan birga uloqqa borishi, do‘stlari bilan uchrashishi, Eson chavandozni ot bosib ketishi voqeasi va ertasiga tongda uyg‘ongan bolaning Eson chavandozning janozasini eshitgani roviy bola tilidan hikoya qilinadi. Voqealar realistik uslubda, aniq, yorqin bayon etilgani, aksariyat o‘rinlarda yozuvchi dialog, monolog, roviy nutqidan, peyzaj kabilardan samarali foydalanganligi hikoyaning bolalar nasridagi o‘ziga xos yutuqlarini ko‘rsatadi. Asar tashqi kompozitsiyasi ham to‘rt faslga ajratilgan. Shuningdek, yozuvchining 1921-yilda “Sharq chechagi” nomli bolalar jurnalida birinchi marta bosilgan “Jinlar bazmi” sarlavhali “mavhum hikoya”si bola tilidan bayon etiladi¹¹. Ko‘rinadiki, XX asrning yigirmanchi yillariga kelib, bolalar nasri shakllanib bo‘lgan.

Demak, bolalar adabiyoti, deganda so‘z san‘atiga asoslangan, badiiy-estetik ijodiy faoliyat natijasida shakllangan, bolalar va o‘smirlarning murakkab ichki olami, intilishi, qiziqishi ifodalangan, xalqona ohang va jonli so‘zlashuvga yaqinlashtirib yaratilgan asarlar nazarda tutiladi. Masalan, O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning “O‘q o‘tmas bolakay yoxud oltin yurak” nomli bolalar uchun yozilgan qissa va hikoyalar to‘plamini keltirish mumkin¹².

Bolalar nasrida Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘ziga xos yo‘lini yaratdi. Bu yo‘lning yetakchi xususiyatlari sarguzasht, xalq fantaziyasi va ijtimoiy illatlarni tanqid qilishning o‘zaro qorishiq usuli bo‘lib, u bir tomondan xalq og‘zaki ijodi, ikkinchi jihatdan esa mumtoz Sharq adabiyoti, uchinchidan esa jahon adabiyotining ilg‘or yutuqlari va to‘rtinchisi yozuvchining ijodiy izlanishlaridan oziqlanadi.

Bu fikrlarni biz yozuvchi ijodi haqida bildirilgan qator tadqiqotlar, fikr-mulohazalarning umumlashmasi sifatida sanab o‘tdik.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “AQSh bolalar adabiyoti va Mark Tven” deb atalgan.

Ma‘lumki, bolalar adabiyoti deyarli barcha xalqlarda, dastlab, xalq og‘zaki ijodi janrlari ta‘sirida shakllangan. Masalan, xalq qo‘shiqlari, xalq ertaklari, bolalarga mo‘ljallangan she‘r, tez aytish, erkalama, rivoyat, hikoyat, masal kabi asarlar sekin-astalik bilan individual bolalar ijodkorligi shakllanishiga turtki bo‘lgan. Keyinchalik boshqa xalqlar bilan o‘zaro adabiy aloqa, ijodiy ta‘sir, tarjima kabi omillar asosida rivojlana borgan. Shunday bo‘lsa-da, har bir xalq bolalar adabiyotining taraqqiyot yo‘li turlicha kechgan.

XVII asrdan boshlab hozirgi Shimoliy Amerika hududlariga Yevropadan turli mamlakatlardan aholi ko‘chib kelishi bilan kuchaya boshlagan. Ular o‘zlari bilan

⁹ Суюмов А., Жумабоев М. Болалар адабиёти. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 3 б. www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹⁰ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2014. – Б. 836-844. Ҳикояга тегишли ҳаволалар шу манбадан олинган.

¹¹ Yuqoridangi manba. Б. 831-836.

¹² Анвар Обиджон. Ўқ ўтмас болакай ёхуд олтин юрак. – Т.: Шарқ, 2011. – 400 б.

o‘z xalqining madaniy boyliklarini ham olib kelishgan. Yangi joyda turli xalqlar vakillari Amerika xalqi shakllanishiga hissa qo‘shishgan. Ana shunday jarayonda sekin-astalik bilan AQSh bolalar adabiyoti ham shakllangan. To‘g‘ri, bu uzoq davom etadigan ijodiy jarayon bo‘lib, uning qator nuqsonlari va afzalliklari bor edi. Bu, avvalo, bolalar adabiyotidagi qorishqlik xususiyati hisoblanadi. AQSh bolalar adabiyoti tarixi mahalliy hindu qabilalari folklori hamda Yevropadan ko‘chib kelgan golland, ispan, frantsuz, ingliz, irland xalqiga mansub aholi orasidagi og‘zaki ijodi, shu xalqlar yozma adabiyotida mavjud bo‘lgan bolalar adabiyoti namunalari asosida shakllangan. Lekin AQSh bolalar adabiyotining dastlabki davrlarida bolalar adabiyotiga oid sodda, samimiy ifodasi, axloq, ilm va insonparvarlikka oid ba‘zi tarbiyaviy ahamiyatga ega xususiyatlar kattalar adabiyoti bilan qorishiq holda kelgan. Masalan, Jon Smitning “Virjiniyadagi mehmondo‘stlikning haqiqiy bayoni” (1608) nomli asarida Jon Smit va malika Pokaxontasning qahramonliklari kattalar bilan birga bolalar qalbida ham romantik kayfiyat, qahramonlik, tavakkalga o‘chlik hissini o‘yg‘otgan¹³. Hindularning inglizlar uchun u qadar ham tanish bo‘lmagan turmush tarzi, kuch-qudrati, qahramonliklari, mifik tushuncha va qarashlari Pokaxontas, uning qabiladoshlari bilan bog‘liq voqealarni maroqli, sarguzashtlarga boy bo‘lishini ta‘minlagan. Mazkur asar tili soddaligi, undagi voqealar ham og‘zaki ijoddagi mavjud rivoyatlarga yaqinligi bilan bolalarda ham katta qiziqish uyg‘otgan.

Ikkinchidan esa har bir xalq vakillari o‘zining milliy qadriyatini saqlab qolishga urinar, boshqa badiiy qadriyatlarni qabul qilishi qiyin kechgan. Bu esa bolalar adabiyotiga e‘tibor nihoyatda sust bo‘lishining omillaridan biri sanaladi.

Bolalar adabiyoti, aniqrog‘i, AQSh o‘smirlar adabiyotida siyosatchi Benjamin Franklinning “O‘smir Richardning kundaliklari” nomli ilk asari alohida o‘ringa ega. Mazkur asar garchi tarixiy mavzuda bo‘lsa-da, unda xalq maqol, matal, naqlarining faol qo‘llanishi, asarning o‘smir bola tilidan bayon qilinishi bolalar nasri taraqqiyoti yo‘nalishini belgilashga xizmat qildi, deyish mumkin¹⁴. To‘g‘ri, muallif asarni kattalarga mo‘ljallab yozgan, ammo asar roviysi – Richardning voyaga yetmaganligi, real voqelikdagi o‘zgarishlarga o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib baho berishi muallifni ko‘plab noxushliklardan saqlab qoladi. Asar yigirma besh yil davomida ketma-ket nashr qilinganining o‘zi ham asarga bo‘lgan talab yuqori ekanligini isbotlaydi.

XIX asr o‘rtalarida o‘smirlar bop sarguzasht asarlari bilan tanilgan German Melvill¹⁵ ham tilga olinadi. So‘ng esa Mayn Ridning “Bo‘ri bolasi”¹⁶, Fenimor Kuperning “Yovvoyilar bilan kurash: Texas hikoyalari”, “Lotsman”¹⁷ kabi asarlarida bolalar va o‘smirlar dunyoqarashining tasviri haqida so‘z yuritilgan.

¹³ The capture and release of Captain John Smith, including his rescue from death by Pocahontas, in his own words from The general historie of Virginia as published at London 1624. [Ann Arbor]: Reprinted for the Clements Library Associates [by University of Michigan Print. ogg], 1960. www.books.library.org; Blanck J. Bibliography of American literature. – New York, 1955. Ишда инглиз ва рус тилидан олинган ҳаволалар таржимаси ўзимизга тегишли.

¹⁴ Brigham C.S. History and bibliography of American newspapers, 1690-1820 p. www.books.library.org

¹⁵ Herman Melville. [http:// dis.acadimeya.ru](http://dis.acadimeya.ru).

¹⁶ Tomas Mayn Rid. Volchonok. www.prodletit.ru

¹⁷ Купер Ф. Борьба с дикарями: техасские рассказы. – СПб. 1881. 215 с.

“Keyinchalik adabiyotga bolalarga xos “yangi qadriyatlar tizimi”ni Mark Tven kitoblari olib kirgan”¹⁸. Muallif bola tarbiyasi, bolalar nasri tamoyillari borasida o‘z shaxsiy qarashlari va qiziqishlariga ega bo‘lgan. O‘sha davr tarbiyachi-o‘qituvchilar fikricha “tarbiyasi og‘ir” bolalarning nigohi bilan olamni tasvirlashga o‘tadi. Bu bilan jamiyatdagi qadriyatlar, bola tarbiyasidagi yo‘nalishlarning qayta ko‘rib chiqilishiga hissa qo‘shdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bola obrazi, bolaning shaxs sifatida shakllanish jarayoni Mark Tven ijodiining dastlabki davridan boshlanib, umrining oxirigacha katta o‘zak, o‘q chiziq sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “Ahmoq bola haqida hikoya”, “Yaxshi bola haqida hikoya”, “Xotira”, “Germaniyalik Zagenfeld haqida afsona” kabi hikoyalarida bosh qahramon bola bo‘lib, ularda bolalik tasviri o‘ziga xos tarzda berilgan¹⁹.

“Tom Soyyerning sarguzashtlari” asaridagi voqealar sodda, shuning bilan birga roviy nutqidagi o‘quvchi e’tiborini tortadigan jozibali tili bilan ajralib turadi²⁰.

There was a slight noise behind her and she turned just in time to seize a small boy by the slack of his roundabout and arrest his flight.

‘There! I might ‘a’ thought of that closet. What you been doing in there?’

‘Nothing.’

‘Nothing! Look at your hands. And look at your mouth. What IS that truck?’

‘I don’t know, aunt.’

‘Well, I know. It’s jam – that’s what it is. Forty times I’ve said if you didn’t let that jam alone I’d skin you. Hand me that switch.’

Parchada Polli hola va uning jiyani Tomning o‘zaro suhbatini keltirilgan. Unda Tomning sho‘xliklari, murabboga o‘chligi va jazodan qochish uchun shumlik qilgani keltirilgan. Aynan shu suhbat orqali aniq vaziyat, bolaning quv, ayyor, g‘ayratli, beg‘araz, kampirning esa sodda va mehribon ekanligi sezilib turadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Mark Tven bolalarga bag‘ishlangan roman trilogiya yozgan bo‘lib, uning birinchi kitobi “Tom Soyyerning sarguzashtlari” (The Adventures of Tom Sawyer, 1876), ikkinchi roman esa «Missisipidagi hayot» (Life on Mississippi, 1883) va uchinchisi “Geklberri Finn sarguzashtlari” (The Adventures of Huckleberry Finn, 1884), deb nomlanadi.

Mazkur trilogiya Mark Tven ijodiy kamolotining eng cho‘qqisi hisoblanib, unda biografik ma’lumotlar talaygina. Xususan, Mark Tven ham 12 yoshidan maktabni tashlab, o‘z nonini o‘zi topishga majbur bo‘lgan, turli sohalarda ishlagan. Ana shunday darbadarlik kunlari, ko‘chib yashagan turmush tarzi davomida to‘plangan tajriba, ko‘nikmalari aksariyat romandagi personajlar tilida, hayotida qo‘llaniladi.

Yozuvchi bolalarning ijtimoiy holatiga razm solib, o‘z asarida ularning moddiy ta’minoti va ma’naviy shakllanishiga ham e’tibor beradi. Masalan,

¹⁸ Yuqoridagi manba, o‘sha joy.

¹⁹ Марк Твен. Собрание сочинений в восьми томах. Том 1. – М.: Правда, 1980. – С. 51-54;

²⁰ The Adventures of Tom Sawyer By Mark Twain. <http://planet.ebook.com>. Фаслдаги бадий парчалар шу манбага тегишли. Кейинги ўринларда ҳаволадан кейин катта қавсда китоб саҳифаси кўрсатилади, холос.

Geklberri Finn portretini chizish orqali yetim va qarovsiz qolgan bolalar muammosiga katta yoshdagi o'quvchilarning diqqatini ham jalb etadi.

Xullas, Mark Tven o'z asarlari bilan dunyo bolalar nasrida katta o'zgarish yasagan yozuvchi sifatida tan olinadi.

Ikkinchi bobda “Romanda syujet va kompozitsiya” masalasini ochib berish maqsad qilingan. Uning birinchi faslida Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” romanida obraz va kompozitsiya, ikkinchi faslida esa “Geklberri Finn sarguzashtlari” romanidagi syujet va konflikt kompozitsiyasi masalalari tahlil qilingan.

Sarguzasht romanlarning badiyatini, ayniqsa, kompozitsiya va bayon usuli belgilaydigan asosiy qism obraz va syujetda yorqinroq ko'rinadi. Aslida romanlardagi obrazlar tizimi va voqealarning joylashuv tartibi asar tili bilan yaxlit holda asar kompozitsiyasini belgilaydi. Bu jarayonda kompozitsiya obraz, syujet va badiiy tilni muallif badiiy-estetik qarashlari asosida birlashtiruvchi, uyushtiruvchi, tashkillovchi vazifani bajaradi. Kompozitsiya asar tarkibiy qismlarini yozuvchi niyati asosida birlashtiruvchi amal bo'lsa, romandagi obraz, xarakterlar o'z nutqi, qiyofasi, makon va zamondagi mavjudligi bilan birlashib, o'zaro munosabatga kirishadi.

Ishda kompozitsiya, syujet haqida Izzat Sulton, Xalizev Valentin Yevgen'yevich, Hotam Umurov, Dilmurod Quronov kabi nazariyotchi olimlarning fikrlari keltirilib, Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” romanidagi bayon uslubi, muallif nutqida voqelikka hajviy yondashuv, ironik munosabatga e'tibor qaratilgan. Bunda syujet va kompozitsiya bir tomondan asarni kulgili chiqishini ta'minlashi, ikkinchi jihatdan, roviyning yosh bola ekanligi va real voqelik uning nazarida biroz tushunarsiz va kulgilidek bo'lishi tabiiy sanalishi, uchinchi esa, uslubdagi hajvga moyillik asar o'quvchilari yoshiga ham moslab yozilganligi tadqiq etilgan.

Xudoyberdi To'xtaboyev romanlari bolalar va o'smirlarga mo'ljallanganligi, aksariyat asarlarida bolalarning fantaziyasi yordamida badiiy olam yaratganligi uning asarlarini tezda o'quvchilar orasida mashhur qildi. Aynan bola fantaziyasi asosida yaratilayotgan voqeani Hoshimjon obrazi orqali bayon etilishi syujet va bayon usulining kompozitsion jihatdan yaxlitligini ta'minlagan. Buni roman ekspozitsiyasidagi quyidagi parchada ko'rish mumkin:

“Tanishib qo'yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz Hoshimjon deb ataysiz. Familyam – Ro'ziyev. Ro'zivoi traktorining o'g'liman. Ruxsat bersangiz oilamiz haqida ham uch-to'rt og'iz so'zlab o'tsam: dadam ikki-uch yildan beri cho'lda buldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishlariga qaraganda o'sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba'zan ikki oyda bir kelib ketadi. Kelganida har biriga alohida-alohida sovg'a-salomlar olib keladi. Sovg'aning eng yaxshisi, albatta menga tegadi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi. Bir o'zi 24 govmishga qaraydi. O'tgan yili sutni ko'p soqqani uchun medal olgan. O'sha medalni oyimdan yashirib men ham

ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib rosa urishdi”²¹.

Mazkur parchada roviyning o‘zini tanishtirishi, ota-onasi ish joyi, ularning mehnat qilishi va o‘zining shumligi haqida gapiriladi. Roviyning uslubidan uning bola ekanligi, o‘zini yaxshi ko‘rishi (eng yaxshi sovg‘alar, albatta menga), aqli hamma narsa yetmasligi (onasining medalini taqib bozorga, maktabga borishi) haqida so‘z yuritiladi. Ekspozitsiyadan roviy va bosh qahramon Hoshimjon ekanligi haqida ham gapirib beriladi. Demak, Hoshimjon obraz sifatida syujetning birinchi qismidayoq, o‘z xarakteriga xos jihatlarni ko‘rsatadi. Bu esa romanning bolalarga xos bo‘lishini ta‘minlagan. Lekin yozuvchi bu yerda yaxlit holatda o‘tgan asrning oltmishinchi yillaridagi oddiy mehnatkash xalq hayotini ham aks ettirgan. O‘shanda qo‘riq va cho‘llarni o‘zlashtirish kompaniyalari kuchayib, odamlar cho‘lga, xuddi Ro‘zivoy traktorchi kabi ketgan, xotini esa uch bolasi va butun oilasiga qaragan hamda fermada ishlagan. Shu orqali uning matonatli ayol ekanligi ham tasvirlangan.

Aslida asar “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” nomli romanlardan iborat. Shu jihati bilan u Mark Tvenning romanlariga o‘xshaydi. Hoshimjon ham Tom Soyerga o‘xshab qiziqqon, turli yangiliklarga o‘ch bo‘lib, jamiyatdagi ba‘zi tartib-qoidalarga qarshi boradi, o‘yinqaroqligi, dangasaligini yashirish uchun har xil nayranglar o‘ylab topadi. Masalan, maktab direktori nomiga ariza yozib, asosiy fanlarni o‘qitmaslikni so‘raydi. Hoshimjon futbolni sevishi va mashhur futbolchidan saboq olishni istaydi. Bola maktab direktorining “o‘qimasa yaxshi odam bo‘lmasligi” haqidagi gapiga qarama-qarshi ravishda sehrli qalpoqcha yordamida katta odamga aylanadi. Syujetdagi bir nechta mayda tugunlar shu yerda katta muammoga aylanib, birinchi planga chiqadi hamda kompozitsiyaning keyingi ko‘rinishida ilm olmasdan diplomga erishgan agronom, iste‘dodi yo‘q shoir kabi obrazlar tasviri beriladi.

Aslida obrazni syujet tarkibiy qismlarining xronologik ketma-ketligidagi yoki voqealar joylashuvi asosidagi tahlili oddiy bo‘lib, bunda, asosan, obraz va syujetning yagona kompozitsiya hosil qilishi, aniqrog‘i, o‘zaro mutanosibligiga ko‘proq diqqat qilinadi. Ammo obraz va syujet aniq makon-zamonda yuzaga chiqishi undagi ma‘lum davr ruhini ifodalashi, obrazlarni o‘z zamonasi qoliplaridan chetga chiqishini ham taqazo etadi. Natijada Hoshimjonning fantaziyasi yordamida yozuvchi o‘z qahramonini afsonaviy qahramonga aylantiradi. U sehrli qalpoq yordamida ko‘rinmas odamga aylanadi. Bu esa unga qator imkoniyatlar yaratadi. Ammo bola bu imkoniyatdan foyalanishni hali bilmasligi unga pand beradi.

Romanning tashqi kompozitsiyasi qism va boblarga ajratilgan. Har bir bob nisbiy mustaqil kompozitsiyaga ega bo‘lib, asosiy mazmunidan kelib chiqib, jami 24 tani tashkil etadi. Ularda asosan Hoshimjon obrazi va u bilan kechgan voqealar bayon qilinadi. Natijada obrazlar kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi, bayon usuli birgalikda yaxlit roman kompozitsiyasining yaxlitligini tashkil etgan.

²¹ Тўхтабоев Х. Сарик девни миниб. Саргузашт роман. – Т.: Ёш гвардия, 1982. – Б. 15-16. Романга оид хаволалар мазкур манбадан олинди. Кейинги ўринларда катта қавсда китоб бети кўрсатилади.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Geklberri Finn sarguzashtlari**” romanida syujet va konflikt masalasi”ni tadqiq etish maqsad qilingan.

Badiiy asardagi syujetlilik asarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan personajlarning asar davomidagi xatti-harakatini yaxlit tizim sifatida namoyon etuvchi voqealarni anglatadi. Voqealar bosh qahramon Geklberri Finn tilidan bayon qilinadi. Bu esa mazkur obrazga ham muallif vazifasida voqealarni boshqarish, ham bosh qahramon sifatida syujet liniyasida ishtirok etish imkonini beradi.

Mark Tvenning mazkur romani tashqi kompozitsiyasida anchayin soddalik bor. Ya’ni u qismlarga ajratilmaydi, balki voqealar 43 ta bobda bayon qilinadi. Xudoyberdi To‘xtaboev romanida esa, avval, uch qismga ajratilgan, so‘ngra boblarga bo‘lingan edi. Mark Tven romanida muallif tilidan qisqacha kirish so‘zi bor. Shu jihatdan bu ikki romanning tashqi tuzilishida ham farqlar borligini ko‘ramiz. Har ikkala romanda ham voqealar bosh qahramon tilidan retrospektiv usulda bayon qilinadi, ammo qat’iy xronikal tartibga amal qilinadi. Bu esa romanlardagi voqealarning mantiqiy yaxlitligini ta’minlab, asar mazmunini o‘quvchi anglashini osonlashtiradi.

Ekpozitsiyada voqea qay sharoitda boshlanayotgani, qahramon va uning atrofidagi personajlarning qanday ekanliklari haqida ilk ma’lumotni beryapti. Syujetning tugun qismiga bog‘liq voqealar ham aslida shu yerdan o‘sib chiqadi.

Ma’lum bo‘lmoqdaki, yozuvchi mazkur romanni bosh qahramon Geklberri Finn (qisqartirib Gek yoki Gek Finn ham deb ataladi) tilidan bayon qiladi. Bu esa mazkur obrazga ham muallif vazifasida voqealarni boshqarish, ham bosh qahramon sifatida syujet liniyasida ishtirok etish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ma’lum voqealar fonida harakatlanayotgan shaxslar mohiyatida ularning faoliyatini asoslaydigan motiv yoki motivlar tizimi mavjud bo‘lishi kerak. Shuning uchun yozuvchi Gekning tutingan onasi Meri (Duglasning bevasi) uyidan qochib ketishini asoslaydi. Syujet voqealari davomida Gek Finn obrazi dinamik tarzda o‘sib, turli qirralarini namoyon etib boradi. Masalan, roman boshida, hali Merining uyida yashab yurganida, u ozodlikka intiluvchi, yangicha fikrlovchi jiddiy bola tarzida namoyon bo‘lsa, uydan qochish tunida uxlayotganda unga hazil qilishlari yoki g‘orda Ben Rodjers uni qatorga qo‘shmaslikni so‘raganda, bir lahzaga yetimligi, nochorligi seziladi. Otasi paydo bo‘lganini qordagi izlardan anglagan va Tetcherga pullarini berib yuborganda esa ziyrak, uddaburon bola sifatida ko‘rinadi.

Syujet voqealari davomida biz Geklberri Finni ochiq ko‘ngil, intiluvchan, samimiy, olijanob, beg‘araz hazillar qiluvchi, shuning bilan birga irim-sirimga ishonuvchan bola sifatida ko‘ra boshlaymiz.

Syujet tarkibiy qismlarining yozuvchi ko‘zlagan ma’lum badiiy niyat asosidagi joylashuvini syujet kompozitsiyasining zimmasidagi badiiy-estetik yuklamani ham ko‘rsatadi. Bunda barcha tarkibiy qismlarning alohida ahamiyati bor. Masalan, birinchi voqea, avval tilga olganimiz ekspozitsiyada bayon qilinsa, undan esa tugun o‘sib chiqadi. Tugunning ichida voqealar rivoji uchun muhim bo‘lgan ziddiyat yashirin bo‘ladi. Mazkur ziddiyat o‘sib borib, konfliktga aylanadi

va u syujetning o'zagini tashkil qiladi. Barcha qismlar yaxlit holda yozuvchini badiiy-estetik kontseptsiyasini, iste'dodini namoyon etadi. Mazkur romanda voqealar rivoji ancha uzun bo'lib, deyarli butun asar bo'ylab o'tadi, uning orasida peyzaj, portret, xarakter, badiiy mantiq (bu yerda obrazlar mantig'i, sharoit mantig'ini ham ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi) asoslash, detal, fabula kabi badiiy asar kompozitsiyasiga oid unsurlar ham syujet tarkibiy qismining joylashtirilishi, voqealar lavhasining muayyan tartibda tashkil etilishida muhim vazifani bajaradi.

